
Qo'shtepa tumani hokimi Novikov Ilyos Valeriyevichning yangi yil tabrigi YANGI YIL TABRIGI!

Hurmatli qo'shtepaliklar!

Qadrli yurtdoshlar!

O'lkamizga yangi 2024 yil kirib kelmoqda. Barcha yurtdoshlarimiz yangi rejalar, yangi orzular va yangi umidlar bilan yangi yil ostonasiga qadam qo'ymoqdalar. Shunday shukuhli kunda barcha vatandoshlarimizni, aziz tumandoshlarimizni yangi yil bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Yangi yilda va kelgusi yillarda osmonimiz doimo musaffo bo'lsin! Muhtaram Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar, xalq farovonligi yo'lida olib borilayotgan ezgu ishlar bardavom bo'lsin! Hammaning xonadoni tinch, oilasi mustahkam, ezgu maqsadlar yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarda Alloh madadkor bo'lsin! Yangi yilda barcha orzularingiz, umidlaringiz, rejalaringiz ijobat bo'lishini, sog'lik, baxt va omad hamrohingiz bo'lishini tilayman.

Yangi yil hammaga qutlug' bo'lsin!

Hurmat bilan, Ilyosbek Novikov, Qo'shtepa tumani hokimi.

2023-12-30 20:38:12